



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 25-mart, № 60 (8955)

Seshanba

Saytingizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TONGGA PESHVOZ CHIQQAN MUQADDAS ZAMIN



Bugun Buxoro viloyatini kezsangiz, har qadamda hayotbaxsh o'zgarishlar, bunyodkorlik va obodlik manzaralariga, kelajakka ishonch hissi bilan yashayotgan insonlarga duch kelib, qalbingiz nurga to'ladi. Shu bilan birga, tarix tilimlari o'ziga chorlaydi.

Osoriyatlarga boy kentlar qatorida Buxoro shahrining o'rni bo'lakcha. Qadimda "Numijkat", "Bumichkat", "Madinat at-tujjor", "Foxira" degan nomlar bilan ham atalgan shaharning 400 dan ziyod me'moriy yodgorliklari bor.

Viloyatning har qarich yeri aziz, har qism tuprog'i muqaddas. Tarixiy kitoblarda Buxorodan ham qadimiyroq deyilgan Varaxsha, shuningdek, Poykent va Vardonzedan topilgan osoriyatlarga, Romitan, Vobkent, G'ijduvondagi obidalaru muborak qadamjolar bu hududlar qanday shonli o'tmishni boshdan kechirganidan, ne-ne ulug' zotlarga beshik bo'lganidan so'zlaydi.

Ko'z o'ngimizdagi o'zgarishlar

"Islom dinining gumbazi"

Buxoro shahri o'z tarixi davomida necha bor istilo va bosqinlar oqibatida o'ch ichida qolgan, tep-tekis cho'lga aylangan, ammo kuldari paydo bo'lgan afsonaviy qanqus qush kabi yana o'z o'rnida qad rostlagan. Hayot to'xtamagan. Va aynan o'z o'rnida qayta va qayta tiklangan ko'hna shaharlar dunyoda sanoqlikdir.

Ahamiyatlisi, dunyodagi 7 ta

shaharga "sharif" unvoni berilgan bo'lsa, ularning biri Buxorodir. Bu kentni "Islom dinining gumbazi", muqaddas, sharafli, sharofatli shahar degan nomga munosib etmoq esa Xoja Imom Abu Hafs Kabir (768 – 832-yillar), Imom Buxoriy (810 – 870-yillar), "Shayx ul-olam" unvoni bilan tanilgan Sayfiddin Boxarziy (1190 – 1261-yillar) va ularning shogirdi izdoshlari zimmasiga tushdi.

Imom Buxoriyning ustozlari sanalgan Abu Hafs Kabir manbalarda juda zehnil, salobatli, xotirasi o'tkir, so'zi keskir, halol

va adolatparvar inson bo'lgani aytiladi. Boshqalar bir haftada yod oladigan oyatu hadislarini u bir kunda xotirasiga muhrlagan. Hayotiy masalalar yuzasidan bahs yurituvchi fiqh ilmini mukammal egallagan. Buxoroda madrasa bunyod etgan.

Rivoyatlarda aytilishicha, sershovqin Shahriston bozorida kuniga ikki bor bir lahzalik sukunat cho'kar edi. Bu Abu Hafs Kabirning madrasaga borish va undan qaytish vaqtida ro'y berardi.



ASSAMBLEYA DOLZARB MASALALAR MUHOKAMASIGA BAG'ISHLANADI

Shu yilning 5 – 9-aprel kunlari poytaxtimizdagi Kongress-xoll majmuasida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi bo'lib o'tadi.

Mazkur anjumanda dunyoning 180 ta mamlakati, 15 ta kuzatuvchi davlat hamda 25 dan ortiq xalqaro va parlamentlararo tashkilotlardan 2 mingga yaqin delegatlar qatnashishi kutilmoqda.

Anjuman

Asosiy – "Ijtimoiy rivojlanish va adolat uchun parlament harakati" mavzuida o'tkaziladigan ushbu yig'ilishda kambag'allikni bartaraf etish, munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ijtimoiy inklyuziyani qo'llab-quvvatlash hamda qaror qabul qilish jarayonida kamstirilgan guruhlarga ishtirokini oshirish kabi muhim masalalar muhokama etiladi.

Assambleya so'ngida Ittifoqning rezolyutsiyalari va Toshkent deklaratsiyasi qabul qilinadi.

«Xalq so'zi».

"BIRINCHI IMKONIYAT" – YOSH TADBIRKORLAR UCHUN KATTA YO'LNING BOSHLANISHI

Barchamizga yaxshi ayonki, O'zbekistonda Prezidentning tadbirkorlar bilan uchrashuvi yaxshi an'anaga aylangan. Xususan, shu yilning 19-mart kuni o'tkazilgan navbatdagi samimiy muloqot ham amaliy va hayotiy tashabbuslarga boy bo'lgani bilan tahsinga loyiqdir.

Fikr

Tadbirkorlikka endi qadam qo'ygandar uchun "birinchi imkoniyat" tamoyili joriy qilinayotgani nafaqat kichik biznes vakillarini, balki butun xalqimizni, ayniqsa, katta hayotga kirib kelayotgan yosh avlodni nihoyatda mamnun etgani ayni haqiqat. Unga ko'ra endilikda ilk bor

ma'muriy huquqbuzarlikka yo'l qo'ygand tadbirkor javobgarlikdan ozod qilinib, kamchilikni bartaraf etish uchun imkoniyat beriladi. O'chig'i, ko'pchilik tadbirkorlar biznesni boshlashdan avval xato qilib qo'yishdan cho'chib turish rost. Albatta, har qanday sohada ham boshlanishida xatolar bo'lishi tabiiy hol.

INSON VA TABIAT UYG'UNLIGI, YANGILANISH VA YASHARISH SHUKUHI

Prezidentimizning Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida bu yig'li Navro'z muqaddas Ramazon oyida, uning tabarruk fazilatlariga uyg'un holda o'tayotgani bayramga alohida ruh, o'zgacha fayz va quvonch bag'ishlashi ta'kidlandi.

Munosabat

Navro'z azaldan xalqimizning milliy va umumbashariy qadriyatlarga, dunyoviy davlat tamoyillariga, bag'rikenglik, chin do'stlik va hamkorlik g'oyalarga sodiqligining yaqqol ramzi ekani, bu ayyom yuritimizdagi barcha millat va elat vakillari uchun sevimli, chin ma'noda umumxalq bayramiga aylangan alohida e'tirof etildi.

Darhaqiqat, Navro'z xalqimiz uchun eng qadimiy va azaliy bayramlardan biri bo'lib, u tabiat qo'ynida o'zgarishlar boshlangan, dov-daraxtlar, maysalar uyg'unib, kurtaklar nish ura boshlagan, tun bilan kun teng kelgan payt, yangi kun hisoblanadi.

Dunyo nigohi



Xitoy poytaxtida "World Leisure Awards – 2024" mukofoti g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Quvonarlisi, unda O'zbekiston 2024-yilda madaniy hordiq chiqarish uchun eng yaxshi yo'nalish, deb topildi.

"Travel&leisure" nashri tomonidan uyushtirilgan tadbirda xorijiy diplomatik korpus, turizm sohasi mutaxassislari va Xitoy ommaviy axborot vositalari qatnashdi.



O'ZBEKISTON — MADANIY HORDIQ CHIQARISH BO'YICHA ENG YAXSHI TURISTIK YO'NALISH

Nashr bosh muharriri hamda asoschisi Syao Yan o'z chiqishida O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega va mamlakat sayyohlar uchun eng qulay joylardan biri ekanini ta'kidladi. "O'zbekiston noyob arxitekturasi, tarixiy obidalari va sayyohlik imkoniyatlari bilan har yili butun dunyodan millionlab sayyohlarni faol jalb etmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonga sayohat qilishni xohlovchi xitoylik sayyohlar soni ham ortib borayotgani, e'tiborlidir", dedi u.

Tadbir ishtirokchilari O'zbekistonda turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan ham tanishtirildi. Davlatimiz rahbariyati tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor tufayli mamlakatimizda turizmning yangi

yo'nalishlari rivojlanib, infratuzilma yaxshilanayotgani, O'zbekiston sayyohlik markazi sifatida e'tirof etilayotgani aytilib o'tildi.

2025-yil Xitoyda "O'zbekiston turizm yili" deb e'lon qilingani va ushbu yil doirasida mamlakatning turli shaharlarida madaniy tadbirlar o'tkazilayotgani ta'kidlandi. Aytilganidek, xitoylik sayyohlarning O'zbekistonga oqimini ko'paytirish maqsadida ikki davlat o'rtasidagi havo qatnovlari soni ikki barobar oshirildi.

Shuningdek, 2025-yilda YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi 1985-yildan buyon ilk bor Parijdan tashqarida, ya'ni Samarqand shahrida bo'lib o'tishiga urg'u berildi.

"Dunyo" AA. Pekin

KORRUPSIYAGA QARSHI BIRGALIKDA KURASHISH ZARUR

Korruptsiya – jamiyat taraqqiyotiga tahdid solayotgan illatlardan biri. U fuqarolarning davlat va jamiyatga bo'lgan ishonchini so'ndirib, qonun ustuvorligiga putur yetkazadi. Shu sababli, mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi keskin kurash olib borish ustuvor vazifaga aylandi. Prezidentimiz Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning yaqinda bo'lib o'tgan kengaytirilgan yig'ilishida bu borada o'zaro tajriba almashish va muloqotlarni kuchaytirish, ilmiy izlanishlar olib borish masalalariga e'tibor qarattirdi. Yig'ilishda oliy ta'lim muassasalari rektorlariga talaba va yoshlarning korruptsiyaga qarshi loyihalari, startap va innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

Nuqtai nazar

Aytish joizki, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasizlik kayfiyatini shakllantirishda 2024-yil 21-iyunda imzolangan "Aholi va davlat xizmatchilarining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorida belgilangan vazifalar muhim o'rin tutadi. Unda aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyatini

yuksaltirish, halollik immunitetini mustahkamlash, yosh avlod ongiga soflik qadriyatlarini singdirish, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi milliy va xorijiy tajriba, ilmiy, uslubiy va amaliy ishlanmalar, erishilgan yutuqlar bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini yuritish, korruptsiyaga qarshi kurashishning dolzarb muammolari yuzasidan ilmiy tadqiqot dasturlari va loyihalarini, jumladan, milliy, xorijiy va xalqaro grantlarni jalb qilgan holda amalga oshirish vazifalari belgilangan.

Bu – mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ham birdek tegishli. Ammo

sir emas, soxta yoki shubhali ilmiy maqolalar chop etilib, ilmiy natijalar ko'pincha manipulyatsiya qilinishi ham uchraydi. Buning oldini olish uchun ilmiy ma'lumotlar bazasi yaratish va har bir ilmiy ishning tadqiqot metodologiyasi, ma'lumotlar va natijalari ochiqlikini talab etish, ochiq ilmiy jurnallarni rivojlantirish va plagiat tekshiruviga eng yuqori ishonchli dasturlardan foydalanish borasida majburiy tartibni joriy qilish zarur. Ilmiy ishlanmalarning soxta yoki asossiz ekanligi aniqlansa, javobgarlik choralarini ko'rinishi lozim.

Ayniqsa, plagiatlarga qarshi kurashish va ilmiy halollikni ta'minlash dardkor. Chunki ilmiy maqolalar va dissertatsiyalarning ma'lum bir qismi plagiat yoki takroriy yozish orqali amalga oshirilib, bu ijtimoiy adolat tamoyillariga tahdid solmoqda. Ushbu illatlarning oldini olish uchun majburiy antiplagiat tizimini takomillashtirish, barcha ilmiy ishlar zamonaviy dasturlar ("Turnitin", "iThenticate" va boshqa) orqali nazoratchi bilan birga tekshirilishi lozim.

HARBIYLARIMIZNING XALQARO REKORDI

Shu yilning 17 – 20-mart kunlari AQShning Missisipi shtati "Camp Shelby" harbiy-o'quv bazasida bo'lib o'tgan "Eng ilg'or jangchi – 2025" musobaqasida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari kichik serjant Alishoh Abdullayev va III darajali serjant Shohrux Jovkashev munosib ishtirok etdi.

Faxr

Vazirlikning Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentidan xabar berishlaricha, xalqaro harbiy hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va maxsus bo'linmalarda xizmat qilish nufuzini oshirish kabi maqsadlarda tashkil etilgan, ushbu musobaqada harbiy xizmatchilarimiz AQSh Milliy

gvardiyasining maxsus bo'linmalari harbiy xizmatchilari bilan kuch sinashdi.

Musobaqa davomida harbiy xizmatchilarimiz yakka tarkibda jismoniy tayyorgarlik sinovlari (6 ta mashqni o'z ichiga olgan fitness testi), jismoniy va ruhiy zo'rliqish yo'lagidan o'tish, tunda 15 kilometr masofaga oriyentirlash, 15 kilogramm yuk bilan 20 kilometr masofaga marsh-

yugurish, jangovar va umumiy tayyorgarlik bo'yicha test sinovlari, insho yozish (harbiy hamkorlik mavzusida 500 tadan kam bo'lmagan so'z), artilleriya olovini boshqarish, AQSh namunasidagi o'qotar qurollarni noto'liq qismlarga yoyish, yig'ish va jangovar holatga keltirish, shuningdek, ulardan turli usul va sharoitlarda o'q otish, tibbiy tayyorgarlik, ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalash, kutilmagan mashqlar kabi shartlarni muvaffaqiyatli bajardi.

Jumladan, harbiy xizmatchilarimiz jamoaviy bahs – 15 kilogramm yuk bilan 20 kilometr masofaga marsh-yugurish shartini 1 soat 50 daqiqa ichida bajardi.



Uchrashuv

KUN TARTIBIDA – HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari O. Mamatkarimov Vyetnam Sotsialistik Respublikasining mamlakatimizdagi fuqaroshida va muxtor elchisi Dan Min Xxoy bilan uchrashdi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Vyetnam o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar, xususan, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamda turizm sohalaridagi hamkorlik muhokama markazida bo'ldi.

Kunlari Toshkent shahrida o'tkaziladigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasiga tayyorgarlik ishlari bo'yicha ma'lumot berildi. Ta'kidlanganidek, ushbu nufuzli tadbir tarixda ilk bor O'zbekistonda o'tkazilayotgan va unda Parlamentlararo Ittifoqning 190 ga yaqin a'zo davlatlaridan 2 mingga yaqin parlamentariylar ishtirok etadi.

Elchi Vyetnam Milliy Majlisi Raisi Chan Txan Majlis boshchiligidagi 120 nafarga yaqin delegatsiya a'zolari mazkur anjumanda qatnashishini ma'lum qildi.

Uchrashuv yakunida ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni yanada kengaytirishga, o'zaro manfaatli hamkorlikni kuchaytirishga va turizm sohasida hamkorlikni kengaytirish masalasi ko'rib chiqildi.

Muloqot chog'ida 5 – 9-aprel

PARLAMENTLARARO ALOQALARNI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN MULOQOT

24-mart kuni Oliy Majlis Senati a'zolari "Qatar – O'zbekiston" parlamentlararo do'stlik guruhi vakillari bilan onlayn muloqot o'tkazdi.

Unda poytaxtimizda bo'lib o'tadigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasiga oid bir qator masalalar muhokama qilindi va aniq takliflar bildirildi.

Shuningdek, O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi strategik munosabatlarni izchil rivojlanib borayotgani ta'kidlandi va parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Uchrashuv yakunida ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida muntazam ravishda muloqot o'tkazishga kelishib olindi.

«Xalq so'zi».

“BIRINCHI IMKONIYAT” – YOSH TADBIRKORLAR UCHUN KATTA YO'LNING BOSHLANISHI

Muhimi, bu xatolardan saboq olish va kelajakda ularni takrorlamaslikdir. "Birinchii imkoniyat" tamoyili shunga asoslangan bo'lib, tadbirkorlarga mas'uliyat va qonuniy tartiblarga moslashishga yordam beradi. Qolaversa, yangi biznesga ma'muriy jarimalar yuklash o'miga kamchiliklarni bartaraf etish uchun fursat berish orqali tadbirkorlar tezroq oyoqqa turishi mumkin.

Shu bilan birga, yangi ishbilarmonlarning o'zlarini xavfsiz his qilib, innovatsiyalarga e'tibor qaratish imkoniyati kengayadi. Yana bir muhim jihati, jazo emas, tuzatish va muvaffaqiyatli biznesni bir paytlar kichik g'oya va ilk imkoniyatdan boshlangan. Ammo ko'pchilik uchun aynan shu birinchi qadami tashlash mushkul. "Birinchii imkoniyat" tamoyili aynan shu muammoni hal qilish uchun joriy etilib, tadbirkorlikka yangi kirib kelayotganlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, resurslar va shart-sharoitlar yaratishni maqsad qiladi.

"Birinchii imkoniyat", bu – yosh tadbirkorlar uchun katta yo'lning boshlanishi. Agar ular har tomonlama qo'llab-quvvatlanasa, zarur shart-sharoitlar yaratilsa, yangi ish o'rnlari paydo bo'ladi va tabiiyki, mamlakatimiz iqtisodiyoti yanada taraqqiy topadi. Ishonchimiz komilki, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan ushbu tashabbus yaqin yillarda o'z samarasini beradi.

Shuhrat ASLANOV, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi.

INSON VA TABIAT UYG'UNLIGI, YANGILANISH VA YASHARISH SHUKUHI

Ezgulik, muhabbat, xayr-saxovat, muruvvat, shafqat va shafolat, yangilanish va yasharish ramzi bo'lmish bu ayyomni orziqib kutish, zo'r shodu xurramlik bilan nishonlash el-yurtimiz uchun oliyanob an'anaga aylanib qolgan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki u tabiat uyg'onishi, hayot tantanasi va bahoriy ko'rkamlikni ifodalab, millati, tili va dinidan qat'i nazar, barchani tenglik va adolat tamoyillari asosida, o'zaro mehr-oqibat ko'rsatib yashashga chaqiradi.

Navro'zi olam bizni butun borliqni, avvalo, yer va suv, hayvonot va o'simlik dunyosini, sof havoni asrab-avaylab, ona tabiatga mehribon farzand bo'lib yashashga da'vat etadi. Yurtimizda "yangi kun"ning boshlanishi bilan ko'z oldimizda yerga urug' qadayotgan, ko'chat o'tqazayotgan bobodehqon siymosi namoyon bo'ladi. Boisi ushbu ayyom arafasida yerlar ekin ekishga tayyorlanadi, dov-daraxtlar butalib, nihollar ekiladi.

U inson va tabiat uchun ekotimiz yaxlit va bo'linmas ekani, hayot abadiyati, ona zamanga mehr, tinchlik, mehnat, do'stlik va hamjihatlik kabi umuminsoniy g'oyalarni tarannum etadi go'yo. Shuning uchun BMT Bosh Assambleyasining 2010-yil 23-fevraldagi rezolyutsiyasiga binoan, 21-mart sanasi Xalqaro Navro'z kuni, deb e'lon qilingan.

Navro'z – yangi kun, yangi fasl demakdir. Bugun uning ruhi va falsafasi Atrof-muhitni asrash va bayramining shoh taomlaridan biri bo'lib, ajdodlarimiz ushbu bayramda aynan shu taomni pishirgan. Sababi, sumalak pishirish uchun dehqonchilikka urug'likka mo'ljallangan eng sara bug'doydan tanlab olingan. U dehqonlar uchun tansiq taom bo'lish bilan birga, urug'lik bug'doyini sinovdan o'tkazuvchi laboratoriyaga aylangan. Bu sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan urug'lik bug'doylar dalalarga ekilgan.

Binobarin, Navro'zi olam asrlar davomida bahor, ezgulik, mehr-oqibat, mehnat va bunyodkorlik ramzi sifatida el-yurtimizning ijtimoiy-ma'naviy hayotida beqiyos o'rin tutib kelmoqda. Bu munavvar ayyom keyingi yillarda Vatanimizda amalga oshirilayotgan "Inson qadri uchun, inson baxti uchun", degan oliyanob g'oyaga hamohang bo'lib, tom ma'noda umumxalq bayramiga aylandi, desak, aslo yangilishmaymiz.

Bu ajoyib, xosiyatli bayram kunlari xonadonlarda maxsus bahor taomlari, ya'ni yalpiz, otquloq, jag'-jag' va boshqa ko'katlardan somsa, patir, biyron va chuchvara tayyorlanadi. Ayniqsa, sumalak sayli alohida ko'tarinkilik bilan kutib olinadi. Sumalak Navro'z

ko'nglimizga iliqlik baxsh etmoqda. Hayotimizga Navro'zning qadimiy ruhi va falsafasiga mos "yashil iqtisodiyot" va "yashil energiya" degan yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Ijtimoiy hayotimizda "aqli shahar", "aqli uy", "yashil xonadon" kabi tamoyillar keng o'rin egallayapti. Huddularning o'ziga xos "tashrif qog'oz"ga aylanib borayotgan "Yangi O'zbekiston" turarjoy massivlari yangi ekotivulizatsiyaning dastlabki milliy namunasini, desak, yangilishmaymiz.

Hozirgi kunga kelib, Prezidentimiz sa'y-harakati bilan Navro'z ayyomining nishonlanishi mazmun va shakl yanada boyitildi. Rasmiyatchilikdan xoli xalq sayillarining qamrovi kengayib, milliy uddam va an'analarning yangi qirralarini ko'zimizga to'rtiy qilib yashashga o'rgatadi. Hammamizga insoniylik, mehr-oqibat va bag'rikenglik fanidan saboq beradi.

Tabiat uyg'onishining timsoli, yasharish va yangilanish ramzi bo'lmish Navro'zi olamni xalqimiz o'zgaracha ruh, ko'tarinkilik bilan qarshi olishi sababi ham shunda. Masalan, bu yilgi bayram tadbirlari ham Prezidentimizning joriy yil 21-fevraldagi "2025-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq keng nishonlandi. Ayni vaqtda huddularida bayramona tadbirlar, sayillar davom etmoqda.

Bugun yurtimizda ul'j berayotgan beqiyos o'zgarishlar, olkan qurilish va bunyodkorlik ishlari ko'klam, Navro'z kabi hayotimizga,

Bugun Navro'z o'zining buyuk qudrati bilan tabiatni uyg'otmoqda. U kishilarga yasharish va bunyodkorlik, poklanish va yangilanish, ruhiy ko'tarinkilik taqdim etadi. Zotan, u shunchaki namoyish, shunchaki bayram emas, balki insoniy tuyg'ularga quvvat berguvchi, odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, jipslashtiruvchi bebaho qadriyatdir.

Odinaxon OTAXONOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

KO'HNA KENTNING OBOD GO'SHASI

Shirin shaharchasi xalqimiz bunyodkorligining yangi namunasidir

Samarqand tarixining sha'ni shundaki, bu diyorni boshqargan har bir shaxs o'zidan yodgorlik qoldirishga harakat qilgan. Binobarin, bu yodgorliklarning barchasi dunyoviy ilmlar va mahalliy hunarmandlar, me'morlar va boshqa kasb egalari to'xtalib o'tish shart emas. Chunki bu har birimizga yod bo'lib ketgan. Mirzo Ulug'bek rasadxonasidan tashqari Registonida masjid va madrasa bunyod qilgan. Bahodir Yalangtosh Sherdor va Tillakori obidalar barobarida o'nga yaqin ko'priklar, Devonbegi madrasasi qurilishiga bosh bo'lgan, Siyob bozorini Registonning hozirgi joyiga ko'chirgan. Shayboniyxon ham ana shunday ulug' ishlarning boshida turgan. Xususan, Zarafshon daryosining Samarqand shahri yonidan o'tuvchi qismida yangi suv yo'llari va ko'priklar barpo etgan. Chunki o'sha davrda yuzaga kelgan qurg'oqchilik suvdan oqilona foydalanishni taqozo qilgan.

chiqarilayotgan mahsulotlar, milliy an'analar bilan tanishishlariga imkon yaratiladi, oilaviy dam olish zonalarini ochiladi. Shuning uchun ham yangi mavzening auktsionga qo'yilayotgan yerlari uchun savdo nihoyatda qizg'in, talabgorlar ko'p.

Bunyodkorlik

Bugun esa o'z davrida qurilgan obida, Zarafshon daryosining ikki oqimi – Oqdaryo va Qoradaryo o'rtasidagi maydonlar va sohillarda juda katta bunyodkorlik ishlari boshlab yuborildi. Gap yillar davomida qisman tartibga keltirilgan bo'lsa-da, e'tibordan chetda qolgan maydonlar ustida bormoqda. Aynan ana shu joyda Samarqand va Oqdaryo tumanlari hududlari kesishadi. Daryoning janubiy qirg'og'i Samarqand shahriga tegishli.

Bundan ikki yilcha oldin, davlatimiz rahbarining taklifi bilan Samarqand shahri kesib o'tuvchi Siyobcha kanali sohillari viloyat hokimligi rahbarligida obodonlashtirildi. Qisqa muddat ichida kanalning 17 kilometr uzunlikdagi qismi ikki tomoni ham aholining sayr qilishiga mo'ljallab kengaytirildi, kanal ichi betonlashtirildi. Samarqandliklar o'z qo'llari bilan barpo etgan ana shu nafosatdan bugun o'zlari bahramand. Boshqa tumanlar markazlarida ham ariq va kanallar betonlashtirilib, ularning sohillari horidiq maskanlariga aylantirilmog'uda. Demog'chimizki, viloyatda bu borada muayyan tajriba ortirildi. Shu sababi, Oqdaryo va Qoradaryo sohiliida bunyod qilinayotgan yangi shaharcha ham yaqin yillarda faxrimizga aylanadi. Hozirdanoq daryolarning obodonlashtirilgan 1,5 kilometrlik qismi atrof chinarak sayilgohga aylangan. Bu yer qishin-yozin aholi bilan gavjum.

Aslida, bu muammo bundan 50 yil oldin ko'tarilgan edi. Ikkala daryo qirg'og'ida Farhod va Shirin shaharchalari qurilishi boshlangan edi. To'g'ri, Farhod qo'rg'onida u-bu ishlar qilindi. Chunki qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi yirik korxonalar joylashganligi sababli ishchilar uchun qurilgan uy-joylar, maktab, bog'cha va xizmat ko'rsatish shoxobchalari unga shaharcha tusini berdi. Shirin shaharchasiga mo'ljallangan yerlarining katta qismi samarasiz yotdi yoki dala-hovillarga aylantirildi.

So'ngso'z o'rinda shuni aytmog'chimizki, Oliy Majlis Senatining to'rtinchi yalpi majlisida "Samarqand viloyatining Samarqand shahri, Samarqand va Oqdaryo tumanlari chegaralarini o'zgartirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra Oqdaryo tumanidan 243 gektar, Samarqand tumanidan 170 gektar, jami 413 gektar yer maydoni Samarqand shahri tarkibiga o'tkaziladi. Natijada amaldagi 252 gektardan iborat "Shirin" mavzesi hududi kengaytirilib, jami 665 gektar maydonni tashkil etadi. Tasdiqlangan bosh reja bo'yicha hududda 180 ming aholiga mo'ljallangan jami 60 mingta xonadondan iborat 254 ta ko'p qavatli uy, 45 ta ijtimoiy soha obyektini quriladi.

Nihoyat, bu maydonga ham e'tibor tushdi. Davlatimiz rahbari masalani joyida o'rganganida bu yangi shaharcha O'zbekiston taraqqiyotining, olimlarimiz aql-zakovatining, binokorlarimiz kuch-qudratining timsoli bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Binobarin, loyihalar, rejalar ham ana shu da'vatga munosib tarzda shakllandi. Ikki davro oraliqidagi bu orolchalarini birlashtirish, "aqli" shahar barpo etishga bel bog'landi.

Farmon TOSHEV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi deputati.

Xo'sh, bu yerda nimalar quriladi? Avvalambor aytilish kerakki, bunyodkorlik ishlari uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda 2025-yil oxirigacha 19 ta biznes markazi, 6 ta ko'p qavatli uy-joy, shuningdek, Toshkent xalqaro kimyo universiteti filiali binosi tiklanadi. Shaharcha ichki va tashqi kommunikatsiya tarmoqlariga ulanadi. Ayni paytda bu ishlar qizg'in davom etmoqda.

ATROF-MUHITGA OID QAROR QABUL QILISH JARAYONIDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI KAFOLATLANADI

Shu yil 11-mart kuni Prezidentimiz "Atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to'g'risida"gi Konvensiyaga (Orxus, 1998-yil 25-iyun) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida"gi Qonunni imzoladi.

Sharh

Avvalo, ushbu Konvensiyaning maqsadiga o'xtalsak, u insonning sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini himoya qilishga hamda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim xalqaro hujjat hisoblanadi. 1998-yil 25-iyun kuni Orxus shahrida (Daniya) Yevropa iqtisodiy komissiyasiga a'zo davlatlar atrof-muhit vazirlarining 4-konferensiyasida 38 ta mamlakat tomonidan imzolangan mazkur Konvensiyaning bugungi kundagi ishtirokchilari soni 47 taga yetgan.

muhitga doir qaror qabul qilish jarayonida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash va atrof-muhit bilan bog'liq masalalar bo'yicha odil sudlovdan foydalanishda inson huquqlarini himoya qilishni qo'llab-quvvatlaydi. Konvensiyaga qo'shilishning ijobiy jihatlari ko'p. Bunda, avvalo, fuqarolar va ekologik nodavlat notijorat tashkilotlarining sohadagi ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyoj qondirib boriladi. Asoslashni talab qilmaydigan zarur ma'lumotlarning talab bo'yicha majburiy ravishda taqdim etilishi yo'lga qo'yiladi.

Konvensiya ucha asosiy blokdan iborat. Jamoatchilikning ekologik ma'lumotlarni olish bo'yicha huquqlari kafolatlari, ekologik ahmiyatiga ega bo'lgan qarorlarni qabul qilish jarayonida jamoatchilik ishtirokining ta'minlanishi, atrof-muhit masalalari bo'yicha jamoatchilikning odil sudlovga murojaat etish vakolatlari shular jumlasidan.

Ochiq foydalanish-resurslarda birlamchi va qayta foydalanish uchun atrof-muhit holati to'g'risidagi hisobotlarni, ochiq ma'lumotlarni va boshqa axborotlarni chop etish orqali jamoatchilikni faol xabardor qilib borish yo'lga qo'yiladi. Ekologik qarorlar chiqarish jarayonining dastlabki bosqichida hamda qonun hujjatlari, siyosat asoslari, rejalar va dasturlarni tayyorlashda jamoatchilikning ishtiroki ta'minlanadi.

Konvensiya ucha asosiy blokdan iborat. Jamoatchilikning ekologik ma'lumotlarni olish bo'yicha huquqlari kafolatlari, ekologik ahmiyatiga ega bo'lgan qarorlarni qabul qilish jarayonida jamoatchilik ishtirokining ta'minlanishi, atrof-muhit masalalari bo'yicha jamoatchilikning odil sudlovga murojaat etish vakolatlari shular jumlasidan.

Ekologik ma'lumotlarni olish kafolatlari quyidagilarni tashkil qiladi: – ma'lumot olish erkinligi; – internet orqali jamoatchilikning faol xabardor qilinishi, atrof-muhit holati to'g'risidagi hisobotlarning chop etilishi; – ma'lumot berishdan bosh tortishdan oldin, jamoatchilikning unga bo'lgan qiziqish darajasini hisobga olish lozimligi; – agar ma'lumot so'rab murojaat qilingan organlarda ma'lumot bo'lmasa, so'rovni qanoatlantirish imkoniyatiga ega bo'lgan organlarga yo'naltirilishi; – inson salomatligi va/yoki atrof-muhitga tahdid yuzaga kelganda jamoatchilikning darhol xabardor qilinishi.

Faqatgina qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solingan holatlarda ayrim ma'lumotlar taqdim etilmasligi mumkin. Konvensiya, shuningdek, atrof-

Mazkur qonun yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz 49-moddasining hayotiyligini kafolatlashga, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi ijrosini ta'minlashga hamda mamlakatimizning bu boradagi xalqaro normalarga qat'iyo riyoga etishini namoyon qilib, uning jahon maydonidagi nufuzini oshirishga hissa qo'shadi. Asosiysi, atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalarda jamoatchilik ishtiroki kafolatlanadi.

Odiljon MAMADALIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Ishchi guruhlarda



QONUN LOYIHXASIGA XAETIY TAKLIFLAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tomonidan aholiga ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatishini yanada takomillashtirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishga tayyorlanmoqda.

Loyihada ijtimoiy xizmat va yordamlarni ko'rsatishda qonunchilikda belgilangan tartib-taomillarni bajarmaslik, standartlarni buzish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha kvota ajratmaslik bilan bog'liq harakatlar qonunbuzilish sifatida malakalanishi belgilanyapti. Xususan, qurilish sohasida nazorat qiluvchi organ tomonidan shaharsozlik hujjatlari loyihalarda nogironligi bo'lgan shaxslarga sharoitlar yaratish bo'yicha ishlab chiqilgan loyihaga rioya etmagan holda qurilish-montaj ishlari tugallangan obyektidan foydalanishga ruxsatonoma berganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmoqda.

Ushbu qonun loyihasi shu yil 18-mart kuni bo'lib o'tgan Qonunchilik palatasining yalpi majlisida deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilinib, uni yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar berilgan edi.

Mazkur qonun loyihasi muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan ishchi guruh yig'ilishida ushbu takliflar chuqur tahlil etildi. Deputatlar tomonidan bildirilgan muholazalardan kelib chiqib, qonun loyihasiga bir qator o'zgartirishlar kiritildi.

Shuningdek, siyosiy partiyalar fraksiyalari vakillari bergan muhim takliflarning asosi, deb topilganlari hujjat matnida aks ettirildi va loyiha har tomonlama pishiq-puxta holatga keltirilib, maromiga yetkazildi.

Ayni paytda qonun loyihasi quyi palataning navbatdagi majlisiga ikkinchi o'qishga muhokama qilish uchun kiritishga tayyorlanmoqda.

IJTIMOY YORDAM VA XIZMATLAR MANZILLILIGI TA'MINLANADI

Qonunchilik palatasining Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tomonidan yana bir muhim hujjat – aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishga tayyorlanmoqda.

Uning muhokamasiga bag'ishlab deputatlar, ishchi guruh a'zolari, huquqshunoslar ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda uni yanada takomillashtirish bo'yicha siyosiy partiyalar fraksiyalari a'zolari tomonidan berilgan takliflar chuqur tahlil qilindi.

Loyiha bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ijtimoiy yordam va xizmatlardan foydalanish to'g'risidagi arizalardagi imzolari, agar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan haqiqiylik tekshirilgan bo'lsa, notarial shahodatlash talab etilmasligi nazarda tutilmoqda.

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari ariza beruvchilarning ularning roziligi asosida bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarini axborot tizimi orqali elektron tarzda olishga va ishlov berishga haqli ekanligi belgilanyapti.


Ishchi guruh yig'ilishida qonun loyihasi atroflicha ko'rib chiqilib, deputatlar tomonidan undagi ayrim normalar bo'yicha qator masalalar ko'tarildi. Hujjat matnini yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish va maromiga yetkazish yuzasidan ko'plab takliflar berildi.

Ushbu hujjat ijtimoiy himoya organi tomonidan ehtiyojmand aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini har tomonlama baholash orqali davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam va xizmatlarning manzilliligini ta'minlashga hissa qo'shadi.

Mas'ul qo'mitada qonun loyihasini takomillashtirish ishlari davom etmoqda.

«Xalq so'zi».

TONGGA PESHVOZ CHIQQAN MUQADDAS ZAMIN



“Ustoz kelyapti”, deyilgan zahoti bozordagi odamlar bu tabarruk zotning hurmatini qilib, sukut saqlab turardi. Uni “Muallimi islom”, ya’ni “Islom dinining muallimi” deya e’zozlashgan. Shu buyuk ajdodimiz sharafiga bilan Buxoro “Qubbat ul-islom” (“Islom dinining gumbazi”) degan sharafiga loyiq ko’rildi. U yashagan mahalla darvozasi “Haqroh”, ya’ni “Haq yo’li” deb ataldi.



Istam IBROHIMOV
«Xalq so'zi».

— Abu Hafs Kabir asos solgan madrasa Buxorodagi eng qadimiy oliy o’quv yurti sanaladi, — deydi tarix fanlari doktori, manbashunos olim Komiljon Rahimov. — 800 — 810-yillar atrofida qurilgan bu tabarruk darvoz shorolar inqilobiga qadar faoliyat ko’rsatgan. Unda o’z davrida Imom Buxoriy ham tahsil olgan. Gulobod, G’aribiya, Forjak, Kulartegin kabi madrasalar tarixi ham IX-X asrlarga borib taqaladi. Umuman, Mir Arab madrasasi bunyod etilgunga qadar Buxoro va uning atrofida yigirmaning ziyod turli toifadagi oliy o’quv yurtlari bor edi.

Mir Arab madrasasiga kelsak, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2023-yilda uning 500-yilligi keng nishonlandi. Mustaqillik sharafiga ila Xoja Abu Hafs Kabir marufo qo’nim topgan go’sha hozir obod qadamjoga aylantirilgan. Sayfidin Boxarziy nomi bilan ataluvchi mahalladagi “Fatxobod” ziyoratgohida esa “Islom tamadduni namoyandalari” xiyoboni barpo etilmoqda.

«Qanday baxtli onasiz!» «Mustaqillik» so’zini bejiz tilga olmadik. Istiqloq yillarida milliy va diniy qadriyatlarimiz qayta ko’z ochdi. Dunyo Buxoroga, Buxoro dunyoga yuz burdi. Yoshlarimiz Buxoriylar, Ibn Sinolar avlodi ekanidan ko’nglida g’urur hissini tuymoqda. Marrani baland oylayur.

Mana, Buxoro shahridagi 2-umumta’lim maktabi bitiruvchisi Parviz To’qsonovni olib ko’ring. U O’zbekiston tarixida birinchi marta SAT (Scholastic Aptitude Test) — xalqaro akademik baholash testidan 1600 ball to’plashga erishdi. Natijada yosh hamyurtimiz uchun dunyoning yetakchi oliy o’quv yurtlari o’z eshigini ochdi.

Darvoqe, yaqinda uning hayotida yana bir unutilmas voqea sodir bo’ldi. Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan muloqotida ishtirok etib, erishgan yutuqlari haqida so’zlab berdi.

— Bu biz uchun tarixiy kun bo’ldi. O’g’lim tufayli e’tiborga sazovor bo’ldim, — deydi shu tadbirda qatnashgan Feruza Nuriddinova. — Prezidentimiz menga murojaat qilib, “Qanday baxtli onasiz! Buxoro sharif deydi Buxoron. Shariflikka munosib farzand yetishtirib, sizdan minnatdorman”, degan samimiy so’zlarni aytganida benihoya to’lqinlandim. O’g’lim misolida baralla ayta olamanki, farzandining kelajagiga sarmoya kiritgan ota-ona aslo yutuqzmaydi.

Viloyatda Parviz kabi ilgama tashna o’quvchilar ko’p. O’tgan yilda ular xalq-

qazib olish jarayonini to’liq nazorat qilish imkoni tug’ildi.

Yoki boshqa bir misol. Buxoro shahrida “Bukhara Next Generation Product” MCHJ tomonidan qiymati 120 million AQSh dollari bo’lgan biznes loyiha amalga oshirildi. Bu yerda yiliga ikki millionta elektronika va maishiy texnika vositasi ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Muhimi, korxonada ikki mingta ish o’rni yaratildi. Bu dalilga alohida urg’u berishimiz bejiz emas. Zamon shiddat bilan o’zgarimoqda. Inson talab va ehtiyoji ham bir joyda turib qolmayapti.

Shu nuqtai nazardan, “Inson qadri uchun” tamoyiliga yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha o’zgarishlarning asosi sifatida qaralayotgani ayni muddao. Deylik, Qorako’l va G’ijduvon tumanlaridagi “Yangi O’zbekiston” massivlarida 360 xonadonli 18 ta ko’p qavatli uy-joy barpo etildi. Viloyatda aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanish darajasi 74 foizga yetkazildi. Jahon va Osiyo miqyosidagi sport musobaqalarini o’tkazish imkoniga ega “Universal” majmuasi qurildi. Bular davlatimiz rahbarining viloyatga qilgan tashrifi o’laroq amalga oshirilgan ishlardan bir shingil, xolos.

— Hadislarda aytilganidek, hamma amallar niyatga bog’liq, — deydi shofirkonlik dongdor dehqon, O’zbekiston Qahramoni Azim Latipov. — Ezgu maqsad bilan boshlangan ishlar yurtdoshlarimizning o’z hayotlaridan rozi bo’lib yashashlari uchun xizmat qilmoqda.

Bu fikrni statistik ma’lumotlar ham tasdiqlaydi. Chunonchi, tabiiy gaz, neft, grafit, bentonit, marmar, gips kabi tabiiy resurslarga boy, to’qimachilik sanoati jadal rivojlanayotgan viloyatda yalpi huddudiy mahsulot hajmi 2024-yil yakuni bilan 71,6 trillion so’mga yetdi. Bu 2023-yildagiga nisbatan 106,6 foizga ko’p. O’tgan yili 236 ming kishining bandligi ta’minlandi. Ishsizlik darajasi 6,5 foizdan 5,1 foizga tushdi. Kambag’allik darajasi esa 7,3 foizni tashkil etdi. Vaholanki, 2023-yilda bu ko’rsatkich 11,8 foiz edi.

Tashrif buyurishga eng munosib shahar

Ko’hna Buxoroni sayyohlarsiz tasavvur etish mushkul. Uning turistik salohiyatini ko’rgan chet ellik investorlar yirik loyihalarga sarmoya tikmoqda. “Wyndham”, “Mercure”, “Sahid” kabi taniqli xalqaro brendlarga xos ikkita to’rt yulduzli, to’rtta uch yulduzli mehmonxonalar ish boshladi. “Hyatt regency”, “Hilton”, “Ramada” kabi xalqaro brendlar ham mehmonxonalarini ishga tushirish arafasida.

— Sayyohlarga zarur infratuzilma yaratish ko’lami yil sayin kengaymoqda, — deydi viloyat turizm boshqarmasi mas’ul xodimi Boburjon To’xsonov. — O’tgan yil yakunida mehmonxonalar soni 607 tani tashkil etdi. Bu esa 2023-yildagiga nisbatan 111,6 foizga ko’p. Turistik korxonalar esa 186 taga yetdi. Bu davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ochiqlik siyosati, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi, albatta.

Qadimiy yodgorliklarni asrab-avaylash, konservatsiya qilishga ham e’tibor kuchaymoqda. Prezidentimizning tashabbusi bilan 156 milliard so’m

miqdoridagi mablag’ obidalarni ta’mirlashga yo’naltirilgani fikrimiz isboti. Bungacha esa Yurtboshimizning topshiriq va tavsiyalari asosida yetti pir — Abdulxoliq G’ijduvoniy, Muhammad Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag’naviy, Xoja ali Romitaniy, Muhammad Boboy Samosiy, Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshband majmualari yanada obod etilgan edi. O’tgan yilda Bahouddin Naqshband majmuasida 600-yilcha muqaddam qurilgan “Toqimiyona” ziyorat yo’lagi tarixiy manbalar asosida qayta tiklandi. Pirovardida turizm namoyish obyektlari soni 300 tadan oshdi.

Viloyatda sayyohlik iqtisodiyotning yetakchi bo’g’iniga aylanib borayotir. Chunonchi, o’tgan yilda Buxoroga 1 million 745 ming nafardan ziyod xorijiy sayyohlar tashrif buyurdi. 2023-yil bilan taqqoslaganda bu ko’rsatkich 125,8 foizga oshdi. 2024-yilda turizm eksporti hajmi 436,3 million AQSh dollariga yetdi. Bu avvalgi yildagiga nisbatan 128,7 foizga ko’p. Ziyorat turizmi yo’nalishida Singapurda bo’lib o’tgan umumjahon sammitida Buxoro’l sharif “Halal In Travel Global Summit 2024” mukofotiga

muzeining manzili kerak ekan. “Qaniydi, har bir oilada dam olish kunlari muzeyga borish an’anasi shakllansa, shunda yuqoridagiga o’xshash xijolatpazlik bo’lmamidi”, deydi tanishimiz.

— Xuddi shunga o’xshash voqea men ham shohid bo’ldim, — deydi g’ijduvonlik ijodkor Komiljon Jo’rayev. — Bilasiz, ulug’ adib Sadridin Ayniy tumanimizdagi Suktare qishlog’ida tug’ilib o’sgan. Bu yerda uning sharafiga muzey tashkil etilgan. Afsuski, boshqa joylarni qo’ya turing, saktarelik ayrim yoshlar ham shunday go’shaning borligini bilmaydi.

Loaqqal bir nusxa gazeta va jurnal kirib bormayotgan mahalla va qishloqlarni aytmaymizmi? Hukumatimizga rahmat, ta’lim muassasalari kutubxonalarini davlat hisobidan qator gazeta-jurnallar bilan boyimoqda. Lekin muallimlar orasida badiiy-ilmij kitoblar, matbuot nashrlarini o’qishga, bilim va dunyoqarashini yuksaltirishga hafsalasi yo’qlari uchrayotgani achinarli. Ta’lim muassasalaridan birida bo’lib ona tili va adabiyot fani o’qituvchilari bilan suhbatlashanimizda ular o’qigan vaqt

“Viloyatda sayyohlik iqtisodiyotning yetakchi bo’g’iniga aylanib borayotir. Chunonchi, o’tgan yilda Buxoroga 1 million 745 ming nafardan ziyod xorijiy sayyohlar tashrif buyurdi. 2023-yil bilan taqqoslaganda bu ko’rsatkich 125,8 foizga oshdi. 2024-yilda turizm eksporti hajmi 436,3 million AQSh dollariga yetdi. Bu avvalgi yildagiga nisbatan 128,7 foizga ko’p. Ziyorat turizmi yo’nalishida Singapurda bo’lib o’tgan umumjahon sammitida Buxoro’l sharif “Halal In Travel Global Summit 2024” mukofotiga munosib ko’rilgani ham juda ko’p narsani anglatadi.”

munosib ko’rilgani ham juda ko’p narsani anglatadi.

— Shahringizda o’zimni bamisoli sharqona eraktalar olamiga tushib qolgandek his etdim, — deydi irlandiyalik sayyoh Beatri Enen. — Meni milliy urf-odatlarimiz, xalq amaliy san’at ustalarining qo’l mehnati asosida tayyorlayotgan rang-barang mahsulotlar hayratga soldi. Buyuk Ipak yo’li chorrhasida joylashgan bu shaharga yana kelish niyatidaman.

Darhaqiqat, dunyoning turli davlatlaridan tashrif buyurib, ko’hna kentni tomosha qilgan sayyohlar bilan suhbatlashsangiz, ular Buxoroga afsonaviy, mehmondo’st, mo’jizakor, betakror, maftunor, yurakka yaqin, tinch va osuda, obod shahar, deya ta’rif beradi. Binobarin, AQShning “The New York Times” nashri Buxoro shahrini 2025-yilda jahonning tashrif buyurishga eng munosib joylari ro’yxatiga kiritgani bejiz emas.

Ma’naviy dunyomiz g’arib bo’lmasin

Guruch kurmaksiz bo’lmaydi. Viloyatda hamma ishlar silliq ketyapti, deyish fikridan yiroqmiz. Og’riqli nuqtalar kam emas. Yaqinda ziyoli tanishlarimizdan biri eski shaharda dilni xira qiladigan, bir qarashda arzimasek tuyulgan voqeaning shohidi bo’ldi. Uning aytishicha, xorijiy mehmon Labihovuz bo’yida uch-to’rt chog’li mahalliy fuqarodan nimanidir so’rar, ular esa bir-birlariga qarab yelka qisishar emish. Surishtirsa, mehmonga san’at

yo’qligi, ish behad ko’pligini ro’kach qilishdi. Axir, uyali telefonidan ko’z uzmay qolgan, ijtimoiy tarmoqlarga ixtiyorini o’g’irlatib qo’rgan o’g’il-qizlarga ota-onalar va muallimlar kitob mutolaasi orqali o’rnak bo’lishi kerak emasmi? Buxorolik bo’la turib ba’zi muallimlar shoirlar — Toshpo’lat Hamid bilan Toshpo’lat Ahmadni, Sulton Jo’ra bilan Tilak Jo’rani chalkashtirib yuradi. Shunda Abdulla Qahhorning “Adabiyot muallimi” hikoyasida yozganlari buning oldida holva emasmi, deya achchiq o’yga tolasan, kishi.

Buxorodagi mahallalardan biriga marhum adib nomi berilgan. U shu yerda tug’ildi. Taniqli yozuvchi-adib bo’lib yetishgan. Mahalla raisi bilan shu haqda gurgunglashmoqchi edik. Ammo suhbatimiz qo’r olmadi. Rais “U kishi katta shoir bo’lgan”, deyishdan nariga o’tmadi. Ikki-uch ming nafar aholiga bosh-qosh sanalgan yetakchining saviyasi shu bo’lgach, dodingni kimga aytasan?!

Sayyor qabullarda oilaviy mojarolar, aliment masalasi, uy-joy

qurilishidagi firibgarliklar yuzasidan murojaatlar ko’pligi kuzatilmoqda. Vaholanki, kitobga oshno tutingan, dunyoqarashi keng yoshlarning oila, turmush qadriga yetishi, bir-birini tushunib yashashi allaqachon o’z isbotini topgan. Qolaversa, qurilishdagi firibgarliklar ortida ham ma’naviy dunyosi g’arib kimsalar turgani kunday ravshan. Shu sabab vijdonni jig’ildonga urib, nafs qiliga aylantirishgan. Taajjubki, o’z haququqini tuzukroq bilmagan fuqarolar ularning tuzog’iga tushgan...

G’apning indallosi shuki, ma’naviyatsizlik, loqaydlik, bilimsizlik balosidan o’zimizni, farzandlarimizni asraylik. Toki, illat gazak olmasin!

Yengil nafas olar ona Buxoro

...Keling, yana xayrli amallar, xushxabarlarga to’xtalaylik. Zero, 2025-yil voha ahliga ko’plab ezgu niyatlarining ro’yobini va’da qilmoqda. Masalan, “Yangi O’zbekiston” massivlarida 540 ta xonadonga mo’ljallangan 12 ta, talab yuqori hududlarda esa 128 ta ko’p qavatli uy-joylar barpo etilyapti. Gulchorbog’ mahallasidagi 50 gektar yerda viloyatning yangi ma’muriy markazi qurilishiga kirishildi. Shayxon mahallasida Buxoro davlat universitetining 20 ming o’rinli yangi kampusi barpo qilinadi. Qorako’l tumanida esa Achariya universitetining loyiha qiymati 90 milliard so’m bo’lgan binosi foydalanishga topshiriladi.

— Buxoro tumanidagi “Novmetan” mahalla fuqarolar yig’ini hududida zamonaviy aeroport qurilishiga kirishilmoqda, — deydi viloyat hokimligi matbuot xizmati rahbari Olimjon Jo’rayev. — U ishga tushgach, soatiga 1200 nafar yo’lovchiga xizmat ko’rsatish quvvatiga ega bo’ladi. Amaldagi aeroport esa soatiga 400 kishini qabul qilish imkoniga ega, xolos. Shuningdek, yangi aeroport tomon 23 kilometr uzunlikda avtomobil yo’li quriladi. Yondosh hududda “Yangi O’zbekiston” bog’ining barpo etilayotganidan ham yurtdoshlarimiz behad mamnun. Zamonaviy bu bog’ vohaning o’ziga xos “tashrif qog’oziga” aylandi.

— Buxoroda tahsil oylapman, — deydi xorazmlik talaba Ullibibi G’o’yibova. — Buxoro — Urganch — Xiva temir yo’lida yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektropoyezd qatnovi yo’lga qo’yilishini eshitib, juda suyundim. Negaki, otabobalarimiz “Yo’l azobi — go’r azobi”, deb bejiz aytmagan. Biz uchun endi yo’lning oisligi muammo bo’lmay qoladi. Aytishlaricha, elektropoyezd borib-kelish vaqtini uch soatgacha qisqartiradi.

Uzunligi 465 kilometrdan iborat bu yo’nalishdagi tezyurar poyezdlar ichki va tashqi turizmni rivojlantirishda ham muhim o’rin tutadi, albatta. Bugina emas, viloyatda yo’lsozlik, aholini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlash, avtotransport xizmati ko’rsatish kabi qator sohalarida ham salmoqli ishlar bajarilyapti.

Yaqinda esa yana bir xushxabar qanot yozdi. Buxoro YUNESKoning nufuzli “Ijodkor shahar tarmog’i” dasturiga qo’shildi. U mintaqamizda shunday sharafiga erishgan dastlabki shaharga aylandi.

Ayni damda esa qadimiy va navqiron Buxoro yana bir yirik tadbir taraddudida. Shaharning tarixiy qismida Markaziy Osiyoda ilk bor xalqaro tasviriy san’at biennalesi o’tkaziladi. YUNESKO shafeligida tashkil etiladigan bu tadbir ham xalqimiz ijodkorlik, bunyodkorlik salohiyatining ko’zguisiga aylinishi muqarrar.

Xushxabarlar, zalvalri rejalaridan kishi qushdek yengil tortadi. Qalb shukronalik hissini tuyadi. Yorug’ orzu-umidlari og’ushidagi yurtda yashash baxtidan ko’ngil nurlanadi.

Tongga peshvoz chiqqan muqaddas zamin, Beqiyos go’zallik baxsh etar damlar. Ko’tarib tobora shuhratu sha’nin, Bunyodkor el yana dadil odimlar!



KORRUPSIYAGA QARSHI BIRGALIKDA KURASHISH ZARUR

Qolaversa, har bir tadqiqot ilmiy etika va axloqiy tamoyillar asosida mustaqil ekspertlar tomonidan baholanishi, albatta, o'z samarasini beradi. Ilmiy sohada halollik va axloqiy qoidalardan chiqish holatlari mavjudligini ham hisobga olib, har bir universitetda ilmiy halollik bo'yicha mustaqil komissiya tuzish, ilmiy etika bo'yicha maxsus o'quv kurslarini joriy etish va har bir tadqiqotchi ushbu kursni o'tishini majburiy qilib qo'yish kerak. Shuningdek, ilmiy grantlarni ajratish tizimini islohot etish fursati ham yetdi, deb hisoblaymiz. Chunonchi, grant va moliyaviy mablag'lar taqsimoti shaffofligini ta'minlash uchun grantlarni baholash tizimini raqamlashtirish va avtomatlashtirish kerak. Baholash jarayonida esa xorijiy mustaqil ekspertlar ishtirokini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Grantlarning natijalari va mablag'lar qanday sarflangani haqida davlat portali orqali hisobotlar berish mexanizmini joriy qilish, bundan tashqari, moliyaviy audit va monitoring tizimini kuchaytirish lozim. Chunki tadqiqot loyihalarga ajratilgan mablag'larning sarflinishi ustidan nazorat ba'zi holatlarda samarali emas. Barcha ilmiy loyihalarni hamkorlikda baholash uchun majburiy audit tizimini joriy etish ham mumkin. O'z navbatida, davlat va xalqaro ekspertlar tomonidan mustaqil monitoring o'tkazish tizimini ham yo'lga qo'yish kerak.

O'zbekiston ilmiy muhitida xalqaro sheriklik va mustaqil baholash tizimining ba'zi sohalarida sust shakllanganligi ilmiy hamkorlikni rivojlantirish zaruratini taqozo etadi. Ya'ni ilmiy loyihalarni xalqaro tashkilotlar (Transparency International, UNESCO) bilan sheriklikda baholash hamda xorij universitetlari va ilmiy institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish lozim. Akademik litsenziyalar va sertifikatlash amaliyotini joriy etish maqsadida har bir tadqiqotchi ilmiy ishining sifati bo'yicha xalqaro reyting

yuritilishi kerak. Bunda, ilmiy darajalar berish jarayonida mustaqil xalqaro ekspertlar qatnashishi majburiy qilinishi lozim. Oliy ta'lim tizimi korrupsiyadan tozalangan, halol va shaffof bo'lmagan mamlakatning kelajagi yaxshimas. Ming afsuski, yaqin tariximizda ta'lim sohasida korrupsiya ildiz otgan edi. Maktabgacha ta'lim muassasasidan tortib, to oliy ta'limgacha korrupsiya girdobida qolgandi. Buning natijasida xalqimizda ta'lim tizimiga nisbatan ishonch yo'qoldi. Ming shukrki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi tufayli bugun ta'lim tizimidagi korrupsion sxemalarga barham berilmoqda.

Endilikda qabul jarayonlaridan ko'nglimiz to'q, lekin o'quv oraliq sessiyalarida haliyam korrupsiya holatlari uchray turibdi. Oliygo'harlar joriy imtihonlar bugun shunday tartib-tamoyil asosida o'tkazilmoqdaki, unga ko'ra muayyan fandan dars o'tgan professor-o'qituvchi imtihonda qatnashmayapti. Bu ijobiy o'zgarish, albatta. Navoiy davlat universitetida ham 2018-yil 5-iyunda qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga muvofiq ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos jihatlari inobatga olgan holda talabalar bilimni baholashning zamonaviy, shaffof va adolati usullari, xususan, muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtirokini to'liq istisno etadigan tizim joriy qilingan.

Yana bir yondashuv, bu murojaatlar bilan ishlash va korrupsiyani aniqlash tizimini takomillashtirishdir. Bu yo'nalishda anonim xabar berish tizimini joriy etish, korrupsiya holatlari bo'yicha shaffof tekshiruv o'tkazish amaliyotini tatbiq etish dardor. Ilmiy

korrupsiya holatlarini aniqlash uchun mustaqil kuzatuv organi tuzish, jazo choralarini kuchaytirish kerak. Plagiat yoki korrupsiyaga aralashgan tadqiqotchilar va professorlarning faoliyatini butunlay cheklash va litsenziyasini bekor qilish mexanizmini amaliyotga tatbiq etish, ilmiy halollikni buzganlar uchun jazo muqarrarligini ta'minlash masalalarini yana bir yechimi bo'la oladi. Shu bilan bir qatorda, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsion xatti-harakatlarga yo'l qo'ygan professor-o'qituvchilar va ishchi-xodimlar uchun yagona reestr yaratib, unga kirgan xodimlarning boshqa oliy ta'lim muassasasiga ishg'a qabul qilinishining oldini olish mumkin.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari bakalavr va magistratura bosqichi bitiruvchi talabalarni o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ilmiy maqolalar tanlovi tashkil etish ham o'z samarasini beradi. Shuningdek, barcha professor-o'qituvchilarning huquqiy bilimlarini oshirish uchun tavsiviyyi xarakterga ega bo'lgan tarqatma kitobcha shaklidagi maxsus "Kasb odobnomasi" loyihasini ishlab chiqish kerak. Unda "korrupsiya", "huquqbuzarlik", "manfaatlar to'qnashuvi", "jazo muqarrarligi", "nepotizm", "lobbizm", "odob-axloq komissiyasi", "komplaens nazorat", "maksus bo'linma" singari tushunchalar hamda korrupsion holatga yoki biror-bir qonunbuzulish holatiga duch kelganda qanday yo'l tutish kerakligi, qayerga murojaat qilish lozimligi haqidagi ma'lumotlar o'z aksini topishi maqsadga muvofiq.

Oliy o'quv yurtlarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish" darslarini tashkil etish ham kutilgan natijani beradi. Bunda, korrupsiyaga murossasizlik kayfiyatini shakllantirish maqsadida 1-bosqich talabalari uchun bir semestrda mo'ljallangan o'quv dasturi ishlab chiqish lozim. Bu esa Komplaens nazorat bo'linmalari



xodimlarining talabalar bilan axborot almashinuvini ta'minlaydi. Talabalarning huquqiy savodxonligini oshiradi va tizimdagi korrupsiyaning sezilarli darajada pasayishiga sabab bo'ladi.

To'g'ri, bugun korrupsiya muammosidan xoli mamlakatni uchratish mushkul. Biroq, unga qarshi kurashishda ibratga loyiq tajribaga ega davlatlar ko'p. Shu o'rinda, Finlyandiya tajribasiga asoslanib, majburiy rotatsiya amaliyotini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bu lavozimli shaxs atrofida turli illatlar urchishi ehtimolini oldini oladi va sof raqobat muhitini shakllantiradi.

Yangi Zelandiya tajribasiga ko'ra jamiyat rivojlanishida "jitimoiy ishonch" muhim ahamiyatga ega. Bu - fuqaroning boshqa fuqaroga ishonchi, degani. Shundan kelib chiqib, barcha oliy ta'lim tashkilotlarida talaba va mas'ullar o'rtasida o'zaro ishonch munosabatlarini shakllantirish

Korrupsiyaga qarshi kurash, bu - uzoq istiqbolga mo'ljallangan va muayyan jamiyatda yashovchi har bir shaxsdan katta mas'uliyat talab etadigan jarayondir. Zero, ushbu illat har qanday jamiyatda davlatning siyosiy, iqtisodiy, jitmioiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlariga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imiji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, taraqqiyot barqarorligiga tahdid solib turadi. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlami, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlarini kurashishdan uning oldini olishga o'tishimiz kerak. Shunday ekan, oliygo'har ham bu borada hamjihatlikda shu illatga qarshi kurash olib borishi ko'zlangan maqsadlarga erishishning eng samarali yo'lidir.

lozim. Shu maqsadda pedagog-xodimlar uchun har yili yangi o'quv yili boshlanishidan oldin offlayn tarzda 4 soatlik maxsus "Korrupsiya va uning salbiy oqibatlarini" mavzuida o'quv mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish joiz. Bunda tahsil olgan pedagog-xodimlar ongida halollik, to'g'riqlik kabi ezgu fazilatlar shakllanadi hamda o'z faoliyatida ham mana shu tamoyillarga tayanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim sohasida korrupsiyaning asosiy va keng tarqalgan xavf-xatarlari, ya'ni manfaatlar to'qnashuvida, plagiatdan foydalanishda, oraliq va yakuniy nazorat sessiyalari hamda bilimlarni baholashda poraxo'rlik yoki tanish-bilishlik holatlari, byudjet mablag'larini talon-toroj qilish va boshqa masalalar atrofiga o'rganilib, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlar tahlil etilishi hamda ularning oldini olish bo'yicha keskin chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens nazorat tizimini boshqarish bo'yicha qoshida tashkil etilgan "Talaba yoshlar klubi" a'zolarini moddiy rag'batlantirish amaliyotini yo'lga qo'yish ham mumkin. Ular belgilangan ish reja ijrosi hamda shaxsiy tashabbus toifalariga qarab moddiy rag'batlantirilishi ayni muddaodir.

Muhiddin KALONOV, Navoiy davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

BAHOR NAFASINI HIS ETMOQ - BAXT

Bir kuni Toshkent viloyatiga yoshlar bilan uchrashuvga bordim. Ko'plab yigit-qizlar qatorida yonimda ko'zi ojiz bir yigit o'tirgan ekan. U meni payqab, qo'limdan ushladi-da: "Ustoz, bir savolim bor, - dedi, - sizni ko'p kuzataman, so'z boyligingiz juda katta. Yaxshi tushuntirasiz. - Labbay, - dedim diqqatimni qaratib. - Menga tushuntirib bering: qizil rang qanday bo'ladi?.. Moviy osmondan oppoq bulutlar qanday ko'rinishda?.. Ko'p eshitaman, odamlar "yashil mayssa", deyishadi. Yashil mayssa nimaga o'xshaydi?.."

Ey, umri aziz...

Uning savollaridan qanchadir payt jim bo'lib qoldim. O'zim bilmagan holda o'nga cho'mdim. Men bu yigitga qizil rangni qonga o'xshatmas, u bola qonni ko'rmagan. Bamisoli lola, lolazor deb tushuntirsa, bu haqda ham aniq tasavvurga ega emas. Tug'ilganidan faqat bitta rang - yo qora, yo oq rangni bilgan... Moviy osmondan ummon kabi cheksizligini, oppoq bulutlarning momiq paxtaga o'xshashini idrok etishi qiyin. Biz esa ularni har kuni ko'ramiz. Yam-yashil mayssa deganda, ko'z oldimga ayni bahor pallasidagi yashillik gavdalandi. Lekin u bolaga qanday tushuntirishga aqlim yetmadi. Umrimga kam holat bo'ladi, men shu yigitning savoliga javob berolmadim.

Keyin o'yladim: biz hayotda juda ko'p noshukriklar qilamiz. Ertalab uyg'ongandan hal etishimiz kerak bo'lgan ba'zi ishlarni o'ylab nolishtirib boshlaymiz, ba'zida yotgan o'rnimizdan turgimiz, harakatlarnimiz, yurgimiz kelmaydi. Nimalarni muammo qilamiz, moddiy masalalarni, qanaqadir hayotdagi pastu balandlikni, kamchilikni o'ylab, qiyin ahvolda qolgandek his etamiz o'zimizni. Biroq bu yigit imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramay, erta tongdan turib (uchrashuv tog'larning bag'rida bo'lgan edi), atayin mazkur tadbirga yetib keldi. Qanchadir muddat shu yerda yashadi. Kunlar davomida kuzatdimki, hayotga intildi, yonida bir yordamchi bo'lsa-bo'lmasa, harakatlendi. Uning o'z oldiga qo'yg'an maqsadlar sari intilayotganidan mutassir bo'ldim...

Men hozir gullagan o'rik yonida turibman. Bu bog'ni ustozim Omonulla Madayev sharafiga nomladik. Yaponlarda odat bor: sakura gullaganda kelib bog'ni tomosha qiladi. Chunki mana shu gullab turgan daraxtni ko'rish ham bir baxt, aslida. Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor. Hayotdan noliyidiganlar, shukr qilmaydiganlar bilsinki, ko'zimiz ko'ryaptimi, to'rt muchamiz sog'-salomatmi, mana shu bahor hidini sezib turibmizmi, aslida bizdan baxtli inson yo'q. Omonulla Madayev ustozimiz har yili bahor paytida Raqpongga borib, bog'da o'tirgan o'rik gullaganidan zavqlanar ekan. Men tushunaman, nimaga yaponlar gullagan sakurani tomosha qiladi? Ular ham bahor, hayotning yangi dovoni boshlanganini, go'zallikni ushbu

Sherzodxon QUDRATXO'JA, O'zbekiston Milliy media birlashmasi boshqaruvi raisi, professor.

ELEKTR ENERGIYASINI BIR SOATGA O'CHIRING

Mamlakatimizda 25-mart - "Yer vaqti" kuniga bag'ishlab maxsus aksiya o'tkaziladi. "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tashabbusi bilan tashkil etiladigan mazkur aksiya doirasida barcha davlat tashkilotida elektr energiyasi bir soatga o'chiriladi.

Aksiya

Maqsad tabiiy asrash, tejamkorlikka rioya qilish va bu orqali sayyoramizga g'amxo'rlik ko'rsatishdir. Vazirlik jamoasi yurtdoshlarimizni ushbu aksiyaga befarq bo'lmaslikka va kun davomida bor-yo'gi 60 daqiqaga elektr energiyasidan foydalanmaslikka chaqirmoqda. Bu bilan har bir fuqaro yerni tabiiy asrab-avaylashga hissa qo'shish barobarida, yurtdoshlarimizni ham sayyoramizga g'amxo'rlik qilishga ruhlantiradi.

Iqbol PARDAYEVA, jurnalist.

HARBIYLARIMIZNING XALQARO REKORDI



Shuningdek, yakka tartibdagi bahslarda III darajali serjant Shohruh Jovkashev 3 kilometr 219 metr masofani 11 daqiqa 18 soniyada bosib o'tgan bo'lsa, kichik serjant Alishoh Abdullayev 250 metr masofaga yugurish davomida majmuaviy mashqlarni 1 daqiqa 18 soniyada bajarib, 5 kilogramm og'irlikdagi koptokni 12,3 metr masofaga uloqtirishga muvassar bo'ldi. E'tiborli jihati shundaki, mazkur shartlarning barchasida harbiy xizmatchilarimiz musobaqa rekordini yangiladi. Yakunda harbiy

XALQLARNI, MILLATLARNI YANADA JIPSLASHTIRGAN AYYOM

Mamlakatimizda Navro'z bayrami ko'tarinki ruhda nishonlandi. Ushbu ayyomning shukhi, betimsol, boqiy qadriyatlar har bir xonadonga, har bir qalbg'a kirib bordi, desak, mubolag'a emas. Poytaxtimizda o'tkazilgan asosiy tantanada Prezidentimiz ishtirok etib, xalqimizni bayram bilan qutlagani yurtdoshlarimizni nihoyatda xursand qildi. Davlatimiz rahbari o'z nutqida "Navro'z azaldan xalqimizning milliy va umumbashariy qadriyatlariga, dunyoviy davlat tamoyillariga, bag'rikenglik, chin do'stlik va hamkorlik g'oyalarga sodiqliqiga yaqqol ramzidir. Bu ayyom yurtimizdagi barcha millat va elat vakillari uchun sevimli, tom ma'noda umumxalq bayramiga aylangan", deya ta'kidlagani Navro'z ruhi va falsafasini ifodalab, mamlakatimizda yashayotgan turli xalqlar quvonchiga-quvonch qo'shdi. Yurtimizda ancha yillardan buyon istiqomat qilib, turli sohalarda faoliyat yuritib kelayotgan xorijliklarning fikr-mulohazalari, dil so'zlari aynan shu haqda.

Aks sado

Liu CHUNYAN, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professori (Xitoy): - O'zbekistonda bahoriy kun va tun tengligi - yangilanish va yasharish, tabiatda uyg'onish fasli boshlangani ifodasidir. Bunday paytda o'zbek mahallalarini keziшни, xalqimizning o'lmas urf-odatlarini, an'analarni kuzatishni yoqtiram. Bu galgi Navro'z ham ana shunday shukuhga to'la. Xonadonlar o'choqlarida sumalak pishirilib, dimog'ni qitqilovchi hidi chor-atrofga taralmoqda. Bog'u xiyobonlarda o'tayotgan sayillarda momolarning doira chalb, dostonlarni, xalq qo'shiqlarini baralla kuyilishi har bir inson ko'ngliga yorug' tuyg'ular baxsh etadi. Bu kabi an'analari Xitoydagi Qingming festivali odatlariga o'xshash. Bundan anglashiladiki, madaniy rezonans ikki buyuk millatning qadimiy sivilizatsiyalararo muloqoti natijasi



bo'lib, Xitoy va O'zbekiston o'rtasida azaldan nomoddiy rishla borligini ko'rsatadi. Navro'zi olam ming yillar davomida Buyuk Ipak yo'li orqali madaniy timsol sifatida ildiz otib, zamon va makondan oshib Xitoygacha yetib bordi. Ushbu madaniy xarixrohlik mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga yo'l ochdi. Shuningdek, YUNESKO Navro'zning madaniy xilmaxillikni targ'ib qilish va jamiyat hamjihatligini mustahkamlashdagi roli, diniy bag'rikenglik va mintaqaviy totuvlikdagi o'rini alohida ta'kidladi. Bu Sharq sivilizatsiyasi birgalikda uyg'unlikni ifodalashining yana bir yorqin namunasidir. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan xitoylik olim sifatida bu ko'hna bayram davlatlarimiz o'rtasidagi madaniy aloqalar yaqinligi belgisi ekanini chuqur his etaman.

Aksiya

Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etgan bayram tadbirlarini kuzatib, Navro'z xalqimizning madaniyati va an'analarni, umumbashariy g'oyalarni ifoda etishiga yana bir bor amin bo'ldik. O'zbekistonda Navro'z atrofga yashillik, farovonlik va shukuh ulashib kirib keldi. Bayram arafasida chor-atrof tozalandi, mahallalar, hovliyu ko'chalar saranjom-sarishta qilindi. Bayram kuni odamlar yangi milliy kiyimlar bilan bezandi. Yigitlar do'ppi kiygani, qizlarning esa sochini qirg'o'rim qilib o'rgani bayram taftini yanada oshirdi. Navro'zni o'zbek do'stlarimiz bilan birga nishonladik. Ular xonadonida bug'doydan mazali sumalak tayyorlandi. Bahorning bu tanisq taomi har qanday kishiga xush kelishi aniq. Bundan tashqari, noz-ne'matga to'la dasturxonidagi osh, ko'ksomsa, hovlyat va mevalarning ta'mi o'zgacha. Qishloqlar va ovullarda, bog'u xiyobonlarda konsertlar, milliy raqslar, sport musobaqalari, yarmarkalar, san'at ko'rgazmalari tashkillashtirilgan bayramning jozibasini yanada kuchaytirdi. Ularda turli millat va din vakillari hamjihatlik bilan ishtirok etdi. Bu Navro'zning nafaqat bahor bayrami, balki millatlararo do'stlik, tinchlik va birlik ramzi ekanining yana bir namoyonidir.

Azim AXTAMOV («Xalq so'zi») yozib oldi.

Mamlakatimizdagi umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari o'rtasidagi asosiy fan olimpiadasining respublika bosqichiga Surxondaryo viloyati mezbonlik qilmoqda.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G 242, 15 379 nusxada asentli. Hajmi - 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va ummifiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohimani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi lamda operator M. Begunratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhib S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzil:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 21.05 Topshirildi - 23.10 1 2 3 4 5 6